



**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAMARALI O'QUV
JARAYONLARINI TASHKIL ETISH**

Musayeva Shohistaxon Sadriddinovna

Uchqo'rg'on tuman 2-son politexnikumi direktori

Aannotatsiya:

O'zbekistonda kasbiy ta'lim sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu jarayon mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'rgatish va ularni mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, ta'lim rivoji, o'quv jarayoni, dual ta'lim, integratsiya.

Аннотация:

сфера профессионального образования в Узбекистане развивается быстрыми темпами. Этот процесс направлен на повышение экономического потенциала нашей страны, обучение молодежи современным профессиям и их успешную интеграцию на рынок труда.

Ключевые слова: профессиональное образование, образовательное развитие, учебный процесс, двойное обучение, интеграция.

Aannotation: the field of professional education in Uzbekistan is developing at a rapid pace. This process is aimed at increasing the economic potential of our country, training young people in modern professions and successfully integrating them into the labor market.

Keywords: professional education, development of education, educational process, dual education, integration.



KIRISH

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida samarali o'quv jarayonlarini tashkil etish

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirish, ularni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish

- **Zamonaviy talablarga javob beradigan dasturlar:** O'quv dasturlari doimiy ravishda yangilanib turilib, bozor talablariga mos kelishi kerak.
- **Amaliy mashg'ulotlarga katta e'tibor berish:** Nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor berilishi lozim.
- **Dual ta'lim tizimini joriy etish:** O'quvchilarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarishda qo'llash imkoniyatini beradigan dual ta'lim tizimi samarali hisoblanadi.

2. Malakali pedagog kadrlarni tayyorlash

- **Pedagoglarning malakasini oshirish:** Pedagoglar doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib turishlari kerak.
- **Zamonaviy o'quv texnologiyalarini qo'llash:** Pedagoglar zamonaviy o'quv texnologiyalarini qo'llashni o'rganishlari lozim.
- **Amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish:** Amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb qilish, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

3. Zamonaviy o'quv infratuzilmasini yaratish

- **Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash:** O'quv muassasalari zamonaviy o'quv jihozlari, laboratoriyalar, ustaxonalar bilan ta'minlanishi kerak.
- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash:** Internet, kompyuterlar, interaktiv doskalar kabi texnologiyalar o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.
- **Keng qamrovli kutubxona va ma'lumot bazalarini yaratish:** O'quvchilarning bilim manbalariga kirish imkoniyatini kengaytirish uchun kutubxona va ma'lumot bazalarini yaratish muhim.

4. O'quv jarayonini baholash va monitoring

- **O'quvchilarning bilimlarini muntazam baholash:** O'quv jarayonida o'quvchilarning bilimlari muntazam ravishda baholanib borilishi lozim.



- **O‘quv jarayonini yaxshilash uchun natijalarni tahlil qilish:** Baholash natijalarini tahlil qilib, o‘quv jarayonini yaxshilash uchun zarur choralar ko‘riladi.

5. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish

- **Qiziqarli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish:** O‘quvchilarning qiziqishini oshiradigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish muhim.
- **Tanlovlar, musobaqalar tashkil etish:** O‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun turli xil tanlovlar, musobaqalar tashkil etilishi mumkin.
- **Muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirish:** O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag‘batlantirish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

6. O‘quvchilarni ishga joylashtirishga yordam berish

- **Ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish:** O‘quv muassasalari ish beruvchilar bilan hamkorlik qilib, o‘quvchilarni ishga joylashtirishga yordam berishi kerak.
- **Stajirovkalarni tashkil etish:** O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini oshirish uchun stajirovkalarni tashkil etish muhim.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun juda muhim. Yuqorida keltirilgan tavsiyalar, kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz raisligida 2024-yilda ta'lim, sog‘liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ta’kidlanganidek, o‘tgan yilgi 380 ming maktab bitiruvchisidan 180 mingga ta’limni kollej, texnikum yoki oliygohda davom ettirmoqda. Qolgan 200 ming bitiruvchining mehnat bozoriga kirib kelishi uchun ularni dual ta’lim shaklidagi 234 ta profita’lim muassasasida o‘qishini ta’minlashga erishilmagani tanqid qilindi.

Shu bois, vazirliklar o‘zlariga tegishli kollej va texnikumlarda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashni tizimli olib borish, ulardagi quvvatni 100 foiz ishlatish bo‘yicha vazifalar qo‘yilgan edi. Shuningdek, yig‘ilishda 50 ming kollej-texnikum o‘quvchisini dual ta’lim bilan qamrab olishni tashkil qilish hamda bu ishlar, avvalo, to‘qimachilik, qurilish va qurilish materiallari, elyektrotexnika sanoati, mashinasozlik yo‘nalishlarida boshlanishi belgilangan.



Yil boshida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2023/2024 o'quv yilidan 245 ta professional ta'lim muassasasida Germaniya tajribasi asosida dual ta'lim shakli joriy etildi. Dual ta'lim shaklini samarali tashkil etish maqsadida 3546 ta korxona va tashkilot bilan hamkorlik o'rnatildi, ular tomonidan o'quvchilarga 5 mingdan ziyod ustoz biriktirildi.

Milliy malaka tizimiga muvofiq, kasbiy ta'lim tizimida o'rta bo'g'in mutaxassislarini kompetensiyalarga asoslangan ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish tizimiga o'tildi. Xususan, hozirgi kunda 340 dan ortiq kasb bo'yicha kompetensiyaga asoslangan dasturlar amaliyotga joriy qilindi.

2024/2025 o'quv yilidan boshlab 233 ta texnikumda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilandi. Bu vazifalarni izchil davom ettirish maqsadida mazkur farmon bilan dual ta'lim shaklida o'quvchilarni qabul qilish ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida to'g'ridan to'g'ri amalga oshiriladi. Endi kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyotga kiritiladi. Bitiruvchilarni yakuniy baholash soha ekspertlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, baholashga vakolatli tashkilotlar, ish beruvchilar, uyushmalar va Savdo-sanoat palatasi vakillari ishtirokida ko'rgazmali imtihonlar shaklida amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarga beriladigan malakalarni bevosita ish beruvchilar, jumladan, xususiy sektor vakillari ishtirokida baholash tizimiga o'tilishidan dalolat beradi.

Berilgan malakalarning bevosita ish beruvchilar tomonidan baholanishi kelgusida ularga berilgan malakalarning mehnat bozorida tan olinishi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim rivojlangan mamlakatlarda kadrlar tayyorlash bevosita ish beruvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda nazariy bilimlar ta'lim muassasalarida, amaliy ko'nikmalar esa korxona va tashkilotlarda o'rgatiladi.

Endi mamlakatimizda beriladigan malakalar tashqi mehnat bozorida tan olinishi bilan bog'liq qadamlar tashlandi. Yangi tashkil qilingan texnikumlarda bosqichma-bosqich xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadi. O'rta bo'g'in kadrlariga talab Oliy



ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Kasbiy ta'lim" platformasi orqali shakllantirilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Qabul jarayonini ish beruvchilar talabi va hududlarning ixtisoslashuvi asosida shakllantirish ham muhim. Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, innovatsion rivojlanish natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlarning mehnat bozoriga ta'sirini inobatga oladi.

Germaniyada esa mamlakat mehnat bozorining yuqori va o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojini baholashda turli mutaxassisliklar kesimida yaxlit iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, hududlar miqyosida makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlarga tayaniladi.

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimida yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, o'quvchilarda yetarli ko'nikmalarni shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida har bir soha uchun kadrlar tayyorlash infratuzilmasi yaratilmoqda. Bunda har bir tarmoq o'z yo'nalishi bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlariga buyurtmalar portfelini shakllantirishi, investitsiya loyihalari asosida yaratiladigan ish o'rinlari uchun talab etiladigan hamda yangidan ichki mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi kasblarni shakllantirishi lozim. Yaratiladigan yangi ish o'rinlari uchun talab etiladigan kasbiy va til bilish ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'rganib borish, kadrlarni oldindan tayyorlash mexanizmini joriy etish muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi borasida harakatlar strategiyasini amalga oshirish davlat dasturlari ishlab chiqildi va bu borada bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan harakatlar strategiyasi asosida huquqiy, demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan jamiyatni barpo etish asosida, yuksak ma'naviyatli, zamon talablariga mos, raqobatbardosh, malakali yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash zarurligi muhim masalalardan biri ekanligi ta'kidlandi.



“Iste’dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi”, – deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi Prezidentimiz tomonidan keskin tanqid qilingani ta’limning dolzarb masalasi ekanligini ifodalaydi. Shu bilan birga, ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratilmaganligi, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati xalqaro ilmiy hamjamiyatda munosib o‘ringa ega emasligi e’tirof etildi². Ta’limga ko‘plab innovatsiyalarning joriy etilayotgani mavjud muammolarni bartaraf etishda salmoqli natijalarni ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, ta’lim jarayoni zamon talablariga hali to‘liq javob bermayapti va bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengroq amalga oshirishni davr taqozo etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlar asosida professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlash, malakasini oshirish, oliy ta’lim tizimiga ilmiy-texnologik ishlanmalar va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, xalqaro reytinglarda munosib o‘rin egallashini ta’minlash bo‘yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston bugungi kunda jahonga o‘z nomini tanitmoqda, xalqaro hamkorlikka keng yo‘l ochilib iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan yuksalmoqda. Davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishida zamon bilan hamqadam, yetuk mutaxassislar, raqobatbardosh yangi avlod kadrlariga ehtiyoj baland. Bunda bo‘lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash ta’limi, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash, rivojlangan davlatlar ta’lim tajribasidan foydalanish alohida muhim o‘rin tutadi.

¹ O‘zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvidagi nutqi.

² O‘zR Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 24-oktyabr kuni oliy ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi.



ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 24-oktyabr kuni oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.
3. A.R.Xodjaboyev, I.A.Xusanov, U.N.Nishonaliyev, Kasbiy ta'lim metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2006.
4. SH.S.Shoyimova, Sh.R.Mirzayeva, U.D.Qarshiboyeva, Kasbiy ta'lim metodikasi. Toshkent «Turon-iqbol» 2020.
5. https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari